



**MONOPOLIYA SHAROITIDA RAQOBAT VA ISTE'MOLCHI
HUQUQLARINING BOG'LIQLIQI**

Sultonaliyeva Zulayxo

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada monopoliya sharoitida raqobat darajasining pasayishi va iste'molchi huquqlarining ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda monopoliya bozorlaridagi narxlar, mahsulot sifati, tanlov imkoniyatlari va innovatsiyalar kabi omillar tahlil qilindi. Shuningdek, regulyatorlarning monopoliyalarga nisbatan olib borayotgan siyosati va iste'molchilarni himoya qilish mexanizmlari ko'rib chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, monopoliya raqobatning kamayishi bilan iste'molchilar uchun salbiy oqibatlariga olib keladi, shu jumladan narxlarning oshishi, sifatning pasayishi va tanlov imkoniyatlarining kamayishi. Shu sababli, milliy bozorlarda sog'lom raqobatni ta'minlash va iste'molchi huquqlarini samarali himoya qilish uchun regulyativ chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlari: *Monopoliya, raqobat, iste'molchi huquqlari, bozor iqtisodiyoti, narx siyosati, mahsulot sifati, tanlov erkinligi, davlat regulyatsiyasi, innovatsiyalar, sifat nazorati, iqtisodiy barqarorlik, bozor strukturalari, iste'molchilarning manfaatlari.*

Zamonaviy jamiyatda har bir fuqaro iste'molchi sifatida mahsulot va xizmatlardan foydalanadi. Sifatli mahsulot xarid qilish, to'g'ri ma'lumot olish va xavfsiz xizmatlardan foydalanish iste'molchilarning asosiy huquqlaridandir. Ammo ba'zan sifatsiz mahsulot, firibgarlik yoki xizmat ko'rsatishdagi qonunbuzarliklar iste'molchilarning manfaatlari zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish nafaqat ularning shaxsiy manfaatlarini ta'minlash, balki adolatli va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. O'zbekistonda iste'molchilarning huquqlari maxsus qonunlar bilan himoyalangan bo'lib, davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlari ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ushbu maqolada iste'molchi huquqlari, ularni himoya qilish mexanizmlari va O'zbekistondagi mavjud tartib-qoidalar haqida so'z yuritiladi. Hozirgi kundagi bozor iqtisodiyotida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish dolzarb masala sifatida nafaqat mamlakat hududi shuningdek, xalqaro miqyosda ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida o'z navbatida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Fuqarolik kodeksi, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunlari bilan shuningdek, qonun osti hujjatlar asosida tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining "iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuning 1-moddasida iste'molchi - foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish,



xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs) sifatida belgilangan. Bu norma shuni anglatadiki, faqatgina jismoniy shaxslargina iste'molchi bo'la oladi, yuridik shaxslar esa bunday huquqqa ega emas. Iste'molchi iqtisodiy munosabatlarda zaif tomon sifatida shartnomaviy munosabatlarda ustuvor huquqqa ega hisoblanadi.

Monopoliya bu bozorda yagona sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi bo'lib, raqobatchilar yo'qligi yoki juda kamligi bilan xarakterlanadi. Monopoliyalarda bozordagi kuch markazlashgan bo'lib, iste'molchilar tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Shu sababli, raqobat darajasining pasayishi iste'molchi huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada monopoliya sharoitida raqobatning kamayishi va iste'molchilar huquqlarining buzilishi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Raqobat esa, bozorda ko'plab sotuvchilar mavjud bo'lib, ular mahsulot va xizmatlar uchun iste'molchilar e'tiborini jalb qilishga harakat qiladi. Raqobat mavjud bo'lsa, narxlar pasayadi, mahsulot sifati oshadi va yangi innovatsiyalar paydo bo'ladi. Iste'molchi huquqlari deganda esa iste'molchilarning tovar va xizmatlarni erkin tanlash, adolatli narxda xarid qilish, sifatli mahsulotga ega bo'lish kabi asosiy huquqlari tushuniladi

Iste'molchilarning tovar ish, xizmatni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi kerakligi bo'yicha huquqlarida tovar ish, xizmatning xavfsiz bo'lishi, ishlab chiqaruvchi ijrochi, sotuvchi iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar ish, xizmatlar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi, bunda mazkur ma'lumot tovarlarning etiketkalarida, tamg'alarida, texnik hujjatida yoki tovarlarning ishlarning, xizmatlarning ayrim turlari uchun qabul qilingan boshqa usulda iste'molchilarga yetkazilishi lozimligi anglashiladi.

Narxlarning oshishi bu raqobat bo'lmagani uchun monopolistlar narxlarni sun'iy ravishda oshirishi mumkin. Tanlov cheklangani uchun monopolist sifatga e'tibor kamaytirishi ehtimoli bor. Iste'molchilar uchun mahsulot va xizmatlarni tanlash imkoniyati cheklanadi. Raqobat yo'qligi innovatsion jarayonlarni sekinlashtiradi. Shuningdek, regulyatorlar tomonidan joriy etiladigan qonunchilik va nazorat mexanizmlari monopoliyalarning salbiy ta'sirini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Iste'molchi huquqlarini himoya qilish tizimlari narxlarni nazorat qilish, sifat standartlarini belgilash va shikoyatlarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

Eng muhim jihatlardan biri bu - iste'molchilarning asosiy huquqlari: iste'molchilar ma'lumot olish, iste'molchi tovar yoki xizmat haqida to'liq va haqqoniy ma'lumot olish, tovar va xizmatlarning xavfsizligi, mahsulotlar va xizmatlar inson salomatligi, hayoti, mol-mulki va atrofmuhit uchun xavfsiz bo'lishi, to'lovlarning qoplanishi, agar tovar yoki xizmat zarar yetkazgan bo'lsa, iste'molchi to'liq moddiy va ma'naviy zararni qoplashni talab qilish huquqiga hamda iste'molchi bozorda erkin tanlov qilish huquqiga ega. Bu huquqlarni bilish sizga o'z manfaatlaringizni himoya qilishda yordam beradi, shuningdek, tadbirkorlarni sifatli tovarlar va xizmatlar ko'rsatishga undaydi. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish jamiyat taraqqiyoti va adolatli iqtisodiy muhitni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Sifatli mahsulot va xizmatlardan foydalanish, to'g'ri ma'lumot olish va





firibgarliklardan himoyalaniş har bir iste'molchining tabiiy huquqidir. Shu sababli, iste'molchilar huquqlarini yanada mustahkamlash va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun bir qator taklif va yechimlarni ilgari surish lozim. Birinchidan, iste'molchilarning huquqiy bilimlarini oshirish uchun muntazam ravishda o'quv dasturlari va seminarlar tashkil etish zarur. Ayniqsa, yoshlarni iste'mol savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, iste'molchilar shikoyatlarini tezkor va samarali ko'rib chiqish tizimini yanada rivojlantirish lozim. Bu borada onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish qulaylik yaratadi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan iste'molchilar huquqlarini buzish holatlarining oldini olish maqsadida nazorat tizimi kuchaytirilishi lozim. Mahsulot va xizmatlarning sifati bo'yicha jamoatchilik nazorati mexanizmini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, monopoliyada raqobat yo'qligi sababli sotuvchi narxlarni yuqori belgilashi mumkin. Iste'molchilar esa boshqa tanlov imkoniga ega bo'lmagani uchun bu narxlarni to'lashga majbur bo'ladi. Natijada, iste'molchi huquqi – "adolatli narxda mahsulot olish" – buziladi. Shuningdek, monopolist mahsulot yoki xizmat sifatini oshirishga unchalik intilmasligi mumkin, chunki bozorda raqobat kuchi yo'q. Monopoliya sharoitida raqobatning kamayishi yoki umuman yo'qligi iste'molchi huquqlarining buzilishiga olib keladi. Bozorda yagona sotuvchi mavjudligi narxlarning oshishi, mahsulot va xizmatlarning sifatining pasayishi hamda iste'molchilar uchun tanlov imkoniyatlarining cheklanishiga sabab bo'ladi. Raqobat esa aksincha, bozorda sog'lom raqobat muhitini yaratib, iste'molchilarga sifatli mahsulotni maqbul narxlarda taqdim etish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va keng tanlov imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bois, milliy iqtisodiyotlarda sog'lom raqobatni rivojlantirish va monopoliyalar faoliyatini tartibga solish uchun samarali reguliatorlik mexanizmlari va qonuniy chora-tadbirlarni joriy etish zarur. Bu esa iste'molchi huquqlarini himoya qilish, bozorda adolatli muhit yaratish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

References:

1. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010. - 756 b
2. O'lmasov Ahmadjon. Iqtisodiy bilim asoslari: (Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik) -T .:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.- 144 b
3. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T.
4. Salimova, D.T. "Iqtisodiyot nazariyasi". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 320 b.





5. Xolboev, N. “Raqobat va monopoliyaga qarshi siyosat”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 284 b.
6. Porter, M. “Raqobat ustunligi” (Competitive Advantage). – Moskva: Alpina Publisher, 2015. – 420 b.
7. Zulayxo S. The role and importance of cognitive technology in digital economy // Eurasian Journal of Entrepreneurship and pedagogy. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 20-21.
8. Sultonaliyeva Z. ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15377681> // Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 115-118.
9. Ta'lim fanlari tendentsiyalari 2022. T. 1. №. 12. C. 258-265. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI O'RNI // O'quv fanlaridagi Akademik tadqiqotlar va tendentsiyalar jurnali. - 2022. -T. 1.12.95-99 ERN SCIENCE 9.
10. Abdurakhmanov R. Determination of traffic congestion and delay of traffic flow at controlled intersections // The American Journal of Engineering and Technology. – 2022. – T. 4. – №. 10. – C. 4-11.
11. Karimov H. Y., Azimova S. B. Analysis of genotypic variants of the polymorphism of the CYP2C9 gene in the Uzbek population // Mezhdunarodnyi meditsinskii zhurnal. – 2012. – C. 106-109.
12. The European Green Deal Brussels. COMMUNICATION FROM THE COMMISSION TO THE EUROPEAN PARLIAMENT, THE EUROPEAN COUNCIL, THE COUNCIL, THE EUROPEAN ECONOMIC AND SOCIAL COMMITTEE AND THE COMMITTEE OF THE REGIONS.
13. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70052>